



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA
INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI**

Faxriddin Umarov¹

¹*TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrası dotsenti*

KALIT SOʻZLAR	ANNOTATSIYA
Kichik va oʻrta biznes, kichik biznes subyektlari, kreditlash, garov, foiz stavkasi, bonifikatsiya, “yoʻl berish” usuli.	Ushbu maqolada AQSh, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Malayziya kabi ilgʻor xorijiy mamlakatlarning bank-moliya tizimi misolida kichik va oʻrta biznes tushunchasi, kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmlari va bunda davlatning roli kabi masalalar koʻrib chiqilgan. Muallif xorijiy tajriba tahlili asosida mohiyatan faoliyatini endi boshlamogʻchi boʻlgan shaxsga ishonch bildirishdan iborat “yoʻl berish” usuli taklif etadi va uning ijobiy tomonlarini asoslaydi.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Малый и средний бизнес, субъекты малого предпринимательства, кредитование, залог, процентная ставка, бонификация, метод “дать дорогу”.	В данной статье на примере банковско-финансовой системы развитых зарубежных стран – США, Германии, Японии, Китая, Малайзии рассмотрены определения понятий малого и среднего бизнеса, механизмы кредитования субъектов малого предпринимательства и роль государства в этом. Автор на основе анализа зарубежного опыта предлагает метод “дать дорогу”, суть которого заключается в выражении доверия человеку, только начавшему своё дело, и обосновывает положительные стороны данного метода.
KEY WORDS	ABSTRACT
Small and medium-sized businesses, small business entities, lending, collateral, interest rate, bonification, method of “giving way”.	In this article, using the example of the banking and financial system of developed foreign countries – the USA, Germany, Japan, China, Malaysia, the definitions of small and medium-sized businesses, lending mechanisms for small businesses and the role of the state in this are considered. Based on the analysis of foreign experience, the author suggests the method of “giving way”, the essence of which is to express confidence in a person who has just started his business, and substantiates the positive aspects of this method.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda kichik biznes subyektlari erkin bozor munosabatlariga asoslangan xoʻjalik yuritish tizimining muhim tarkibiy elementlaridan biri sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes subyektlari tashqi va ichki muhitning oʻzgaruvchan shart-sharoitlariga tez va oson moslasha olish qobiliyatiga ega. Bu xususiyat raqobat muhiti rivojlanishiga, iqtisodiy tizimni tuzilmaviy jihatdan qayta qurish jarayonlarini amalga oshirishga, innovatsion texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishga turtki beradi.

Kichik biznes subyektlari ijtimoiy bandlik muammosini ijobiy hal etishga yordam berishi, jamiyatda ijtimoiy tanglikni kamaytirishga imkon berishini inobatga olsak, kichik biznes subyektlarini qoʻllab-quvvatlash borasida amaldagi moliyalash mexanizmini takomillashtirish katta ahamiyatga ega. Mazkur mexanizmdan samarali foydalanish hisobiga mamlakatimizda faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlarining sonini oshirish mumkin. Bu mamlakatimizning jahon bozorlaridagi raqobatbardoshlik imkoniyatlarini kuchaytirishga va mavqeyini oshirishga xizmat qiladi.



Tadqiqot metodologiyasi. Kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz davomida tizimli tahlil, statistik kuzatish, statistik jamlash va guruhlash kabi tadqiqot usullaridan foydalandik. Bu mamlakatimiz aholisining kambag'allikdan qutqarishda, avvalambor, kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmini rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirishga asos bo'ldi.

Tahlil va natijalar. Kichik biznes subyektlarini rivojlantirishda bank sektorining alohida o'rni bor, chunki aynan banklar kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyati samarali kechishi uchun zarur bo'lgan moliyaviy xizmatlarni taklif etadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tmoqchimizki, bank sektori kichik biznes subyektlariga samarali yordam berishi uchun bir qator muammolarni hal etish kerak.

Ayni vaqtda kichik biznes subyektlariga, ayniqsa, endi faoliyat yuritishni boshlagan tadbirkorlik subyektlariga banklardan uzoq muddatli kredit olish anchagina murakkab, chunki ular olinadigan qarz evaziga garov sifatida taqdim etish uchun yetarlicha bo'lgan mol-mulkka ega emas. Bundan tashqari, kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish tijorat banklari uchun tashkiliy xarajatlari yuqori jarayon hisoblanadi.

Kichik biznes subyektlarining muvaffaqiyatli rivojlanishi ko'p jihatdan xususiy tadbirkorlarning uzoq va nisbatan qisqa muddatlarda talab etiladigan moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Hozirgi paytda mamlakatimiz kredit bozori institutsional jihatdan rivojlanish bosqichida ekanligi, taklif etilishi mumkin bo'lgan moliyaviy instrument va xizmat turlarining cheklanganligi bilan xarakterlanadi. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi nobank institutlarining

rivojlanmaganligini e'tiborga olsak, bu hol pirovardida real iqtisodiyot sektorlarini yetarli darajada moliyalashga to'sqinlik qilmoqda.

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashning hozirgi bosqichida mavjud bo'lgan quyidagi muammolarni sanab o'tishimiz mumkin [2]:

– kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmlarining yetarlicha samarador emasligi;

– kichik biznes subyektlari risklarini sug'urtalash mexanizmlarining yaxshi rivojlanmaganligi;

– o'zini-o'zi moliyalashtirish mexanizmlarining sust rivojlanganligi (buni kredit uyushmalari faoliyat yuritmasligi, jamoaviy investitsiya jamg'armalari va boshqa shu kabi tashkilotlarning rivojlanmaganligida ham ko'rish mumkin);

– kichik biznes subyektlari uchun kredit resurslaridan foydalanish shartlari noqulayligi;

– kreditlash jarayonida kredit riskini kamaytirish mexanizmlarining cheklanganligi;

– garovga qo'yilishi mumkin bo'ladigan mol-mulk yetishmasligi sababli aksariyat kichik biznes subyektlarida investitsion, jumladan, bank kredit resurslaridan foydalana olish imkoniyatlarining yo'qligi va boshqalar.

Mutaxassislar moliya bozorlarida, xususan, kredit xizmatlarini taqdim etish bozorida, bank tizimi tomonidan taqdim etiladigan xizmatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligining asosiy sabablari sifatida tomonidan yuqori darajali risklarning mavjudligi hamda kredit oluvchilarda garovga qo'yilishi mumkin bo'ladigan mol-mulkning yo'qligida deb ko'rsatishmoqda. Bu tabiiy, chunki ishlab chiqarishda tezlikda realizatsiya qilinishi mumkin bo'lgan asosiy fondlarni shakllantirish uchun kamida 5-10 yil davomida faoliyat yuritish talab etiladi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

N.Yamori (N.Yamori) Yaponiyada kichik biznes va tadbirkorlikni moliyalashtirishning davlat kredit kafolati tizimining ahamiyatini tahlil qilgan. Moliyaviy institutlar kichik biznes subyektlariga kreditlarni rasmiylashtirishdan avval ulardan Kredit kafolati fondi (KKF)ga (Credit Guarantee Corporation) ariza bilan murojaat qilishni so‘raydilar. KKF ushbu murojaatga javoban kreditni kafolatlashini bildirsa, shundan so‘ng bank kreditni rasmiylashtiradi [2].

Bunda kompaniya kredit foizidan tashqari KKFga kafolat to‘lovlarini banklar orqali amalga oshiradi. Ushbu kompaniyalar bankrot holatini e‘lon qilgan taqdirda kreditor bank zararini KKF tomonidan qoplab berilishni so‘raydi. Ushbu holatda Yaponiya hukumati va mahalliy hukumatlar KKFni Yaponiya moliya korporatsiyasi orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri subsidiyalari, to‘lovlar va sug‘urta qilish bilan qo‘llab-quvvatlaydilar. Kredit kafolati tizimi kichik biznes subyektlarini qo‘llash uchun tuzilgan bo‘lib, kredit oluvchilar bir nechta jihat, jumladan, biznesning kattaligi, tarmoq sohasi kabi talablarga javob berishlari kerak [2].

Yuqorida aytib o‘tilgan fikr-mulohazalarni e‘tiborga olib, kichik biznes subyektlarining iqtisodiy rivojlanishiga turtki berish uchun bevosita emas, balki bilvosita rag‘batlantirish uslublarini ishlab chiqishni taklif etmoqchimiz. Bilvosita rag‘batlantirish uslublari haqida gap ketganida, kichik biznes subyektlari tijorat banklaridan investitsion kreditlar olishi vaqtida davlat kafil sifatida ishtirok etishi mumkin.

Davlat organlari bank hamda kreditlash tizimlari bilan o‘zaro hamkorlikda chora-tadbirlar ishlab chiqishsa, pirovardida kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslar bilan ta‘minlanish muammosini hal etishga muvaffaq bo‘lar edik.

Bir so‘z bilan aytganda, tijorat banklari hamda kichik biznes subyektlarining kredit munosabatlari sohasida davlat kafolati instituti yaratilishi lozim. Kafolat instituti yaratilsa, mutasaddi davlat organlari milliy bank va kredit muassasalarini kichik biznes subyektlariga kredit ajratishga undashi mumkin bo‘ladi. Bu o‘rinda, davlat o‘z zimmasiga kafillikni olib qarz majburiyatlari doirasida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyati uchun zarur investitsion mablag‘larning jalb etilishiga sharoit yaratib beradi.

Gap shundaki, kredit bo‘yicha yetarli darajada ta‘minot mavjud bo‘lmasa, banklar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklar qiymatini kredit foiziga qo‘shib yuborishga majbur bo‘lishadi. Buning oqibatida, tabiiyki, kredit bo‘yicha berilgan pullarni qaytarib olish maqsadida sud jarayonlarini amalga oshirish uchun qilinadigan sarf-xarajatlarning keskin oshib ketish ehtimoli borligi tufayli kredit bo‘yicha foiz stavkalari ko‘tarilib ketadi.

Kichik biznesni kreditlashda rag‘batlantirishning usul va vositalaridan kengroq foydalanish uchun chora izlashda xorij amaliyotiga murojaat etish lozim. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar tajribalari o‘rganilganda, kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish uchun asos bo‘lgan moliyaviy ta‘minot, biznes uchun yagona omil emas, balki har qanday biznes uchun uni boshlash va davom ettirishning eng hayotiy hamda, asosiy elementi hisoblanadi. Albatta, barcha biznes loyihalarimizni amalga oshirishimiz uchun bizga sarmoya, ya‘ni pul mablag‘lari kerak bo‘ladi. Shunisi diqqatga sazovorki pul mablag‘lari manbalari qayerdan, qanday qilib shakllanishi muhim emas, uning huquqiy asosga ega ekanligi, arzon va tez topilishidir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlashda dunyoning eng rivojlangan



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

davlatlaridan biri bo‘lgan Germaniya tajribasining amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

kreditlar uzoq muddatli bo‘lib, kichik biznes subyektlarining investitsion xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida beriladi;

kreditlarning asosiy qarz summasi va foizining ma‘lum qismi davlat mablag‘lari hisobidan bonifikatsiya qilinadi;

ikki yillik muddatga imtiyozli davr bilan beriladi.

Germaniya banklari tomonidan kichik biznesni rivojlantirish uchun berilayotgan kreditlar salmog‘i so‘nggi uch yilda doimiy ravishda o‘sib bormoqda. 2017-yilda kichik biznes subyektlari uchun asosiy kredit turi bo‘lgan, uzoq muddatli kreditlar 1029,2 mlrd yevroni tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yilda bu ko‘rsatkich 46,4 mlrd yevroga ortganini ko‘rishimiz mumkin [1].

AQShda Kichik biznes assotsiatsiyasi 500 dan kam ishchi xodimga ega biznesni kichik biznes sifatida belgilaydi. Shuningdek, mamlakatda bugungi kunda taxminan 28 million kichik biznes subyektlari mavjud. AQShda kichik biznesni moliyalashning ko‘plab usullari mavjud bo‘lib, ular hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan kreditlar va moliyalash dasturlaridan iborat. Hukumatning kredit dasturlari an‘anaviy bank kreditiga layoqatsiz va muammo tug‘diradigan biznes egalari moliyaviy yordam ko‘rsatadi. Ushbu dasturlarda ishtirok etadigan banklar va kredit tashkilotlari biznesni boshlash yoki kengaytirish uchun hukumat tomonidan kafolatlangan kreditlarni taqdim etadi. Ya‘ni, davlat kredit olayotgan kichik biznes egalari kafil bo‘lib turadi.

Kichik biznes assotsiatsiyasi, kichik biznes subyektlariga yordam va resurslarni taklif qiluvchi hukumat agentligi bo‘lib, kreditlar uchun kafolatlar beradi. Kichik biznes assotsiatsiyasi miqdori 150,000 AQSh dollarigacha bo‘lgan kreditlarning

85 foizigacha va 500,000 AQSh dollarigacha bo‘lgan kreditlarning 75 foizigacha miqdorida kafolatlaydi, shuning uchun kredit beruvchiga nisbatan xavf kamayadi. Kichik biznes assotsiatsiyasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarzni taklif qilmaydi, faqat kafolat beradi. Ahamiyatli jihati shundaki, AQShda agentlik vositalari va xizmatlari shunchalik ko‘pki, ular kichik biznes egalari, biznes turi va ehtiyojlariga mos keladigan kreditni topishda yordam beradi. AQSh milliy kichik biznes assotsiatsiyasi (NSBA) kichik biznesni moliyalashtirish va xodimlarni yollash o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjudligini aniqladi (ya‘ni qancha ko‘p kredit berilsa, shuncha ko‘p ishchini ishga ola oladi degan g‘oya yotadi). AQSh kichik biznes assotsiatsiyasi tahlillariga ko‘ra kichik biznesning deyarli to‘rt dan bir qismi haligacha umuman moliyalashtirilmagan [1].

AQSh kichik biznesni kreditlash amaliyotida mavjud bo‘lgan kafolat berish tajribasini O‘zbekiston amaliyotida qo‘lashimiz yaxshi samara beradi. Eng kuchli rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega bo‘lgan mamlakatlardan biri Yaponiyadir. Hozirgi kunda Yaponiyada, 3,82 mln korxonalar faoliyat yuritadi, shundan 3,8 mln yoki 99,7 %i kichik va o‘rta korxonalaridir.

Ularda 33,6 mln kishi mehnat qiladi, bu ish bilan band jami aholining 70 foizi deganidir. Yaponiyada 300 dan ortiq ishchi va 100 million iyena aylanmasiga ega kompaniyalar kichik biznes sifatida qaraladi. Yaponiyada kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash tizimi juda ilg‘or bo‘lib, uni qo‘llab-quvvatlash uchun yiliga 180 milliard iyena ajratiladi [1].

Kichik va o‘rta biznesni kreditlash sohosi bo‘yicha Yaponiya tajribasida moslashuvchan qo‘llab-quvvatlash tizimi, kompleks yondashuv, milliy iqtisodiyotning rivojlanish bosqichini hisobga olgan holda yuritilayotgan siyosat va maqsadlarni tartibga solish, amalga oshirilgan



chora-tadbirlarni baholashning samarali mexanizmidan foydalanish kabi omillarni kuzatish mumkin. Yaponiyada kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning asosiy mexanizmi mavjud bo‘lib, bu imtiyozli kreditlashdir (odatiy kreditni 4-8 foizgacha olish mumkin bo‘lsa, “imtiyozli kredit” ushbu foizning yarmini tashkil etadi).

Umuman olganda, kichik biznesni rivojlantirishning Yaponiya modeli eng yaxshi namuna bo‘lib, biznesni qo‘llab-quvvatlashda dunyodagi eng yirik va yetuk tizimlardan biri sifatida tan olingan.

Bugungi kunda kichik va o‘rta biznes subyektlari Xitoyda ro‘yxatga olingan barcha korxonalarining 97,9 foizini tashkil etib, YIMning 58 foizi va eksportning 68 foiziga o‘z hissasini qo‘shadi” [1]. Xitoy iqtisodiyotida kichik va o‘rta korxonalarini qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati yuqoriligiga qaramay, ularni moliyalashtirish masalasida hamon muammolar mavjud. Kichik va o‘rta korxonalarining qariyb 66 foizi banklardan kredit olayotganlarida turli muammolarga duch kelishmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida, Xitoy Markaziy banki mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun qayta moliyalashtirish stavkasini 50 foiz darajagacha qisqartirdi. Bu kichik firmalarning moliyaviy qiyinchiliklarini yengillashtiradigan keng miqyosli siyosat tizimidir. Xitoydagi Sanoat va tijorat banki (Industrial and Commercial Bank of China) mamlakatning yirik davlat nazoratidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga qarz beruvchi muassasa hisoblanadi.

Hozirgi kunda Xitoy kichik va o‘rta biznes subyektlariga yanada qulaylik yaratish maqsadida ularning ijtimoiy kreditlarining qanchaligiga qarab kredit olishni belgilab beruvchi imtiyozli strategiyani amalga oshirmoqda. Ya’ni, bunda hukumat kichik va o‘rta korxonalarining ijtimoiy kreditlari ma’lumotlarini o‘rganib chiqadi va

baholaydi, so‘ng ma’lumotlarni moliyaviy tashkilotlarga jo‘natadi. Bunday baholash kichik va o‘rta korxonalarining kredit olishlariga juda ham foydali bo‘lib, eng yuqori darajadagi kichik va o‘rta korxonalar bu orqali qisqa muddatda kredit olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Iqtisodiy rivojlanish jihatidan oldingi o‘rinlarda turuvchi Koreya Respublikasida kichik va o‘rta biznes korxonalarini barcha mavjud korxonalarining 99 foizini va ish bilan band bo‘lganlarning 88 foizini tashkil qiladi [1].

Shu bilan birga, kichik va o‘rta korxonalar asosan, Koreya Respublikasi kredit kafolati jamg‘armasining yagona qarzdorlari bo‘lib, ular hukumat va ixtisoslashtirilgan tijorat moliya institutlarining moliyaviy resurslarini jamlaydi. Katta korxonalariga yiliga 1,5 foiz miqdorida komissiya to‘lovi bilan 15 mlrd von (KRW)gacha miqdorda kredit kafolati berishi mumkin bo‘lsa, kichik va o‘rta korxonalar uchun 1 foizgacha komissiya to‘lovi bilan 3 mlrd vongacha kredit kafolatini berishi mumkin.

Koreya Respublikasida kichik biznesni rivojlantirish dasturlari mavjud bo‘lib, ular kredit foiz stavkalarini imtiyozli ravishda berish uchun 1,6 mlrd AQSh dollariga teng mablag‘ni yo‘naltiradi. Kichik biznes subyektlari kreditlardan foydalanish uchun yiliga 2 foizdan ortiq bo‘lmagan miqdorni to‘lash majburiyatini oladi – bu Markaziy bankning asosiy kursidan biroz yuqoridir.

Malayziya davlatining iqtisodiy jihatdan rivojlanishida kichik va o‘rta biznesning ahamiyati juda yuqoridir. Chunki mamlakatda 907 mingdan ortiq kichik va o‘rta biznes subyektlari mavjud bo‘lib, ular jami korxonalarining 97 foizini tashkil etadi. Shuningdek, mamlakat YIMning 36 foizini va ish bilan bandlikning 65 foizini ta’minlaydi [1]. Shuning uchun bu korxonalar mamlakatdagi asosiy ish o‘rinlarini yaratuvchi manba hisoblanadi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Hozirgi kunda Malayziyada kichik biznes subyektlarini kreditlashda quyidagi muammolar mavjuddir:

kreditlarni ta'minlash uchun kafolat yetarli darajada emas;

qarz olish imkoniyati past;

biznes yetarli darajada emas va kredit oluvchilarning bilim saviyasi past.

Shu sababli ham Malayziya hukumati kichik va o'rta korxonalarining kredit olish jarayonini yengillashtirish maqsadida bir qancha g'oyalarni amalga oshirib kelmoqda. Bulardan biri "Credit Guarantee Corporation" (Kredit kafolat korporatsiyasi)dir. Kredit kafolat korporatsiyasi 45 yildan buyon kichik va o'rta korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun turli dasturlar asosida ish olib bormoqda. Bu dasturning shartlari Malayziyadagi barcha banklar tomonidan qabul qilingan va tasdiqlangan.

Shuningdek, Malayziyada kichik biznes subyektlarining moliyaviy imkoniyatini, ish samaradorligini, inson resurslari, texnologiya sotib olish va qabul qilish, sertifikatlash va bozor mavjudligi kabi yettita baholash mezonlari asosida kichik va o'rta korxonalarining ishlash darajasini ko'rsatish uchun diagnostika reyting SCORE tizimi joriy etilgan. Malayziya davlatida kichik biznesni

qo'llab-quvvatlashda barcha banklar uchun bir xil foiz stavkasida kredit berishi belgilab qo'yilganligi kichik biznes rivoji uchun muhim hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi uchun asosiy muammolardan biri o'zining ixtiyorida moliyaviy mablag'lar yetishmasligi hisoblanadi. Ushbu muammoni yechishda kredit asosiy rol o'ynaydi. Biz olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida bir usulni taklif sifatida kiritishni lozim deb topdik. Bu "yo'l berish" usuli bo'lib, uning mohiyati dastlab o'z faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan shaxsga ishonch bildirilib, ish boshlashiga bugungi kun talablariga javob beradigan har tomonlama o'ylangan biznes loyihaga garovsiz kredit berish orqali yo'l berishdan iborat. Ushbu loyiha kelajakda o'z samarasini berishi mumkin. Birinchidan, bank bergan kreditlarining vaqtida qaytishi orqali o'z foydasini oshirib borsa, ikkinchidan, mijozlari sonini oshirgan bo'ladi va, uchinchidan, mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratiladi, bozorda tovar va xizmatlar turi ko'payishiga yordam beradi, to'rtinchidan, aholining ijtimoiy ahvoli bir muncha yaxshilanadi, beshinchidan, mamlakatda soliq to'lovchi ko'payadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Рустамов М.С. Кичик бизнес субъектларини кредитлаш амалиётини илғор хориж тажрибаси асосида такомиллаштириш йўллари. Иқт. ф. бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. – Тошкент, 2019.

2. Хусайнов Ғ.Л. Кичик бизнес субъектларини кредитлаш механизмини такомиллаштириш имкониятлари // Иқтисод ва молия, 2016. – №12. – Б.21-27.

3. Yamori N. Japanese SMEs and the credit guarantee system after the global financial crisis // Cogent Economics & Finance, 2015. – Volume 3. Issue 1.

4. Asia SME finance monitor 2014.
<https://www.adb.org/publications>